


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, ming birlikda)



Korxonalar va tashkilotlar soni
(2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

*mas'uliyati cheklangan jamiyat,
ming birlik*



*xususiy korxonalar,
ming birlik*




Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra)

ming birlik



o'tgan yilga nisbatan o'sishi




2026- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 29 738 tani tashkil etdi, ulardan 25 989 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umuniy sondagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 28,5 foiz, sanoat – 11,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,0 foiz, qurilish – 7,4 foiz, hududiy kesimda eng ko'pi Buxoro shahrida – 27,1 foiz, tumanlardan G'ijduvon – 10,0 foiz, Romitan – 9,2 foiz, Jondor – 8,2 foiz va Buxoroda – 7,7 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 267 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 264 ta;
- yirik korxonalar 3 ta.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2026-yil 1-aprel holatiga 25 989 taga yetdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 13,5 foiz, sanoat – 12,7 foiz, tashish va saqlash – 10,0 foiz, qurilish – 8,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,9 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, hamda boshqa turlari – 10,3 foiz.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(1-aprel holatiga, ming birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga, birlikda)



Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**
(2026-yil 1-aprel holatiga, umumiy sonidagi ulushi)




2026-yilning 1-aprel holatiga 1 290 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1 148 ta, xususiy korxonalar 63 ta, oilaviy korxonalar 50 ta va boshqalar 29 tani tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevasabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.


**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan
korxonalar va tashkilotlar tarkibi**
(2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra)



**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 312 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 106,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 105,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 110,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,5 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 175,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 110,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,2 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2026- yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 199 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan 106,3 foizga (jami qurilishdagi ulushi 47,3 foiz), fuqarolik ob'ektlarini qurish 118,5 foizga (jami qurilishdagi ulushi 27,1 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 102,3 foizga (jami qurilishdagi ulushi 25,6 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8 463 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,9 foizni tashkil etdi. Jami savdo korxonalarini va tashkilotlarini soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 112,4 foizga (jami savdodagi ulushi 59,4 foiz), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 110,5 foizga (jami savdodagi ulushi 30,1 foiz), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 105,6 foizga (jami savdodagi ulushi 10,5 foiz) tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 141 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ga tashkil etdi. Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 109,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 80,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 111,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 19,1 %) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2026- yil 1-aprel holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 368 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,2 foizni tashkil qildi. Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 150,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,2 foiz), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 113,6 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,6 foiz), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 109,1 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 16,3 foiz), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar 150,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,8 foiz), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 113,2 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 39,7 foiz), telekommunikatsiya xizmatlarining 111,5 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 26,4 foiz) o'sgan.

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Oilaviy korxonalar soni
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2026- yilning 1-aprel holatiga ko'ra 3 386 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 765 taga yoki 18,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 365 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga yoki 0,8 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.


2026- yilning 1-aprel holatiga yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 57 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 12,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2026- yil 1-aprel holatiga ko'ra 28 334 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 207 taga yoki 4,1 foizga kamayganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 330 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 511 ga yoki 13,3 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 148 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 116 taga yoki 11,2 foizga ko'paygan.




**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


**Buxoro viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni**
(2026- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2026- yil 1- aprel holatiga ko‘ra 554 tani tashkil etib, ulardan 403 tasi yoki 72,7 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 20 taga yoki 3,5 % ga kamayganligini ko‘rish mumkin.

2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 41 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1-aprel holatiga, birlikda)



**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2026- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


	2022- y.	2023- y.	2024-y.	2025-y.	2026-y.
Jami	362	315	344	333	403
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	33	21	15	17	28
sanoat	129	115	116	98	104
qurilish	37	24	27	21	26
savdo	94	91	114	126	158
tashish va saqlash	6	14	17	11	10
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	26	20	23	20	24
axborot va aloqa	5	5	5	2	3
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	5	4	5	6
boshqa turlar	24	20	23	33	44

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Buxoro viloyati	403	128	275
Buxoro shahri	195	55	140
Kogon shahri	15	8	7
<i>tumanlar</i>			
Olot	23	2	21
Buxoro	36	17	19
Vobkent	8	5	3
G'ijduvon	17	4	13
Kogon	32	10	22
Qorako'l	20	5	15
Qorovulbozor	6	1	5
Peshku	11	4	7
Romitan	14	3	11
Jondor	16	8	8
Shofirkon	10	6	4


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarinig qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi
(2026-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Buxoro shahrida 195 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 48,4 %), Kogon tumani 32 ta (7,9 %), Olot tumani 23 ta (5,7 %), Kogon shahar 15 ta (3,7 %), Buxoro tumani 36 ta (8,9 %), hamda Romitan tumanlarida 14 tani (3,5 %) tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni

(2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2026- yilning 1-aprel holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (26,0 %), G'ijduvon (14,0 %), Buxoro (8,0 %), Romitan (4,0 %), Peshku (4,0 %), Kogon (4,0 %), Vobkent (6,0 %), Shofirkon (8,0 %), Qorako'l (12,0 %), Olot (10,0 %) va Kogon shahar (4,0 %) ulushiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashkari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan- ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Faoliyati tugatilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqda davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi – ma'lum bir davr oralig'ida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.